



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 240 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ilhombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафазловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	120
Kozimova Mehriniso Akbarali qizi	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi	129
Sharipov Nodir Botir o'g'li	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari	138
Aliyev Samariddin Murotali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	142
Boymurodova Sadoqat Istam qizi	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
Gadoymurodova Kamola Sunnatulloevna	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri	151
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati	154
Gulboyev Akbar Tuxtyayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	158
Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application	161
Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik	166
Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry	169
Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
Mahbuba Yusupova Rustam qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
Nasimova N. Q.	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry	182
Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida	187
Ochilova Gulnoza Odilovna	

MUNDARIJA SOÐERJANIE CONTENTS

O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi	191
<i>Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li</i>	
Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli	196
<i>Salomova Nargiza Sattorovna</i>	
Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili.....	200
<i>Shukurova Nargiza Ikramovna</i>	
Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish	205
<i>Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish...	210
<i>Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	216
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni.....	220
<i>Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari	223
<i>Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi</i>	
Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology	226
<i>Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati	229
<i>Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich</i>	
Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи	233
<i>Маматкулов Равшанжон Солижонович</i>	
Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной"	237
<i>Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек</i>	

NAQSHBANDIYA QADRIYATLARINI BO'LG'USI O'QITUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna

CHDPU "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada naqshbandiya tariqati ilmiy merosi orqali talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish mexanizmlari, jumladan, qadriyatlar orqali ta'sir etish usullari keltirilgan. Naqshbandiya ta'limotining asosiy tamoyili bo'lgan "Dil ba yoru, dast ba kor", ya'ni "Diling Allohda, qo'ling mehnatda bo'lsin" shioriga amal qilish orqali bo'lajak o'qituvchilar o'z kasbiga halol va fidokorona yondashuvchi, jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yuvchi, yuksak ma'naviyatli, komil shaxs sifatida yetishib chiqadi. Zamonaviy pedagogikada talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda akseologik yondashuv orqali ta'sir etish mexanizmlari yetarli darajada o'rganilmagan va ushbu muammoni hal etish maqolaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Kasbiy kompetensiyalarni qadriyatlar asosida shakllantirish orqali bo'lajak o'qituvchilarda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki mustahkam ma'naviy pozitsiya hamda ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usi ham rivojlanadi.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, tariqat, tasavvuf, axloq, alloma, namuna, mazhab, nasihat, xizmat, fidoiylik, halollik.

Abstract: This article presents mechanisms for enhancing students' professional competence through the scientific heritage of the Naqshbandi tariqah, including methods of influence based on values. The core principle of the Naqshbandi teaching is adherence to the motto "Dil ba yoru, dast ba kor", meaning "Allah in the heart, hands in work." This principle helps future teachers develop into highly moral and accomplished individuals who are honest and devoted to their profession, placing the interests of society above personal interests. In modern pedagogy, mechanisms for enhancing students' professional competence through an axiological approach remain insufficiently studied, and addressing this issue constitutes the primary objective of this article. Developing professional competencies on the basis of values contributes not only to the acquisition of knowledge and skills by future teachers but also to the formation of a strong spiritual position and a sense of social responsibility.

Key words: competence, professional competence, tariqah, Sufism, morality, scholar, example, madhhab, advice, service, dedication, honesty.

Аннотация: В статье представлены механизмы повышения профессиональной компетентности студентов посредством научного наследия нахшбандийского тариката, включая методы воздействия через ценности. Основным принципом учения Накшбандия является следование девизу "Дил ба ёру, даст ба кор", то есть "сердце с Аллахом, руки в труде", благодаря чему будущие учителя формируются как высококонрастные, гармонично развитые личности, честно и самоотверженно относящиеся к своей профессии, ставящие интересы общества выше личных. В современной педагогике механизмы воздействия посредством аксиологического подхода в совершенствовании профессиональной компетентности студентов изучены недостаточно, и решение данной проблемы является основной задачей статьи. Формирование профессиональных компетенций на основе ценностей способствует развитию у будущих учителей не только знаний и навыков, но и устойчивой духовной позиции, а также чувства социальной ответственности.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, тарикат, суфизм, нравственность, учёный, пример, мазхаб, совет, служение, самоотверженность, честность.

KIRISH

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda qadriyatlar muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Naqshbandiya ta'limotida ilgari surilgan halollik, fidoyilik, xizmat va poklik kabi qadriyatlar o'qituvchi shaxsiyatining rivojlanishida nafaqat nazariy, balki amaliy yo'nalish beruvchi tamoyillarni ham tashkil etadi. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish mexanizmlari ana shu qadriyatlarni shaxsga singdirish, ularni kundalik pedagogik faoliyatga tatbiq etish va natijada o'qituvchi shaxsining bilim, ko'nikma hamda ma'naviy fazilatlarini



uyg'un rivojlanishini ta'minlashni ko'zda tutadi. Shu sababli, qadriyatlar asosida kasbiy kompetentlikni shakllantirish mexanizmlarini aniqlash va izchil qo'llash zamonaviy pedagogik ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Naqshbandiya ta'limotining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan "Dil ba yoru, dast ba kor", ya'ni "Dil Allohda, qo'l mehnatda bo'lsin", inson hayotida ma'naviy va amaliy faoliyat uyg'unligini ta'minlashni anglatadi.

Bu tamoyil o'qituvchilik kasbi uchun ham beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlik va ma'naviy barkamollikni bir butun sifatida shakllantirish zaruratini belgilab beradi. "Dil ba yor" talqini o'qituvchining qalbi doimo sof niyat, halollik, bag'rikenglik va fidoyilik kabi yuksak qadriyatlar bilan yo'g'rilgan bo'lishini anglatadi. "Dast ba kor" esa o'qituvchining o'z kasbiga mas'uliyat bilan, fidokorona yondashib, o'z faoliyati va mehnatini ilmiy asosda samarali tashkil etishini bildiradi. Shu ma'noda, bo'lajak o'qituvchilar o'z kasbiy faoliyatida faqat bilim berish bilan kifoyalanmay, balki shaxsiy namunasi orqali ham o'quvchilarning ruhiy-ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi lozim. Mazkur tamoyil asosida talabalarda kasbiy va ma'naviy uyg'unlikni shakllantirish ularni shaxsiy maqsadlar bilan jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirgan holda faoliyat yuritishga o'rgatadi. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini yanada chuqurroq va barqarorroq shakllantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogikada kasbiy kompetentlikni shakllantirishda akseologik yondashuv alohida o'rin tutadi. Pedagogikada akseologik qarashlarni o'rgangan olimlardan R. Lotse, V. Vindelband va G. Rikert qadriyatlarini mustaqil kategoriya sifatida asoslab bergan hamda akseologiyaning fan sifatida shakllanishiga katta hissa qo'shgan olimlar hisoblanadi.

Rus olimlaridan V. A. Suxomlinskiy va A. S. Makarenko jamoada shaxsning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasini qadriyatlar asosida shakllantirish muammolarini o'rganganlar.

O'zbek olimlaridan Abdulla Avloniy, Abu Nasr Forobiy, N. Saidahmedov, B. Xodjayev va M. Quronov ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani qadriyatlar orqali shakllantirish masalalari ustida ilmiy izlanishlar olib borganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Naqshbandiya tariqati ilmiy-nazariy qarashlari sirasida har bir avlodni kasbli va hunarli qilib tarbiyalash mezonlari, kasbning inson ma'naviyati hamda hayot tarzidagi o'rni, kasbiy bilimlar asoslari, kasb-hunarli bo'lishning inson kamolotidagi ahamiyati masalalari didaktik asosda ko'rib chiqilgan. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasb-hunarni puxta egallaganligi ularning kasbiy kompetentligining muhim belgisi hisoblanadi. Naqshbandiya tariqati ilmiy merosini o'rgatish orqali talabalarning kasb-hunar egallashga bo'lgan intilishlarini kuchaytirish, ularda mehnatsevarlik fazilatlarini tarbiyalash hamda har bir ishni sidqidildan, bor mehrini berib bajarish zarurligini ruhiy-ma'naviy tarbiya vositasida singdirish lozim.

Erkin fikrlaydigan, o'z faoliyati natijalarini tahlil qila oladigan, dinamik o'zgaruvchan dunyoda shaxsni tarbiyalashga qodir pedagoglarni yetishtirish uchun zamonaviy texnologiyalar bilan bir qatorda boy ma'naviy mero-simizdan, asrlar osha bizgacha yetib kelgan qadriyatlarimizdan samarali foydalanish zarur. Zero, malakali, o'z ishining ustasi bo'lgan, ijodiy fikrlaydigan va raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan talab hamisha yuqori bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qadriyatlar falsafasining tarixi uzoq bo'lsa-da, bu yo'nalishdagi fan – aksiologiya o'tgan asrda shakllangan. Ushbu atama ilmiy muomalaga XIX asr oxiri va XX asr boshlarida nemis aksiologi E. Gartman hamda fransuz olimi P. Lapi tomonidan kiritilgan. Aksiologiyani qadriyatlar to'g'risidagi fan yoki qadriyatshunoslik deb atash mumkin. Har bir fanga o'z nomini bergan asosiy tushunchalar bo'lgani kabi, qadriyat tushunchasi ham qadriyatshunoslik atamasi uchun asosiy tayanch vazifasini bajaradi. G'arb ilm-fanida ushbu atama yunoncha "axio" (qadriyat) va "logos" (fan, ta'limot) so'zlari asosida shakllangan. Akseologik yondashuv – bu har bir bilim, ko'nikma va kompetensiyani muayyan qadriyatlar bilan uyg'un holda rivojlantirishni anglatadi. Naqshbandiya ta'limoti asosida talabalarda shakllantirilayotgan kasbiy kompetentlik ham aynan qadriyatlarga tayanishi lozim. Masalan, o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash kompetensiyasi "halollik" qadriyati bilan bog'lanib, fikrlash jarayonida xolislik va haqiqatparvarlikni ta'minlaydi. Jamoada ishlash, hamkorlikda yechimlar topish kabi kompetensiyalar esa "xizmat" qadriyati bilan uyg'unlashib, jamiyatga beminnat xizmat qilish ruhini shakllantiradi. Shuningdek, kasbiy mas'uliyat va fidokorlik kabi kompetensiyalar "fidoyilik" qadriyati asosida rivojlanadi. Shaxsiy namuna ko'rsatish, pedagogik etika va tarbiyaviy ta'sirchanlik esa "ruhiy va ma'naviy poklik" qadriyati bilan mustahkamlanadi.

Shunday qilib, har bir kasbiy kompetensiyaning ichki mohiyatini qadriyatlar bilan bog'lash orqali bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat malakali mutaxassis, balki yuksak axloqiy va ma'naviy fazilatlarga ega pedagog sifatida shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Bu yondashuv talabalarning bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarini uyg'un

rivojlantirishga xizmat qiladi. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida har bir ko'nikma va qobiliyatni muayyan qadriyatlar bilan bevosita bog'lash pedagogik rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Masalan, tanqidiy fikrlash kompetensiyasi halollik qadriyati bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki tanqidiy fikrlash insondan voqelikni yuzaki emas, balki chuqur va xolisona baholashni, haqiqatni topishni hamda noto'g'ri fikr yoki xulosa qarshisida yon bermaslikni talab qiladi. Halollik qadriyati esa aynan o'z fikrini yashirmasdan, haqiqatdan chekinmasdan, ochiq va vijdonli tahlil yuritish tamoyiliga asoslanadi. Xuddi shuningdek, jamoada ishlash kompetensiyasi xizmat qadriyati bilan uzviy bog'liqdir. Jamoada samarali ishlash nafaqat o'z manfaatini, balki umumiy maqsad va jamoadagi boshqa a'zolar manfaatlarini ham e'tiborga olishni talab qiladi.

Naqshbandiya ta'limotida xizmat qadriyati boshqalarga yordam berish va jamiyat manfaati yo'lida fidokorona harakat qilish tamoyiliga asoslanadi. Demak, o'qituvchi o'zining jamoaviy faoliyatida ham individual yutuqlarga emas, balki umumiy taraqqiyotga xizmat qilish maqsadini birinchi o'ringa qo'yishi lozim. Kasbiy kompetensiyalarni qadriyatlar asosida shakllantirish orqali bo'lajak o'qituvchilarda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki mustahkam ma'naviy pozitsiya hamda ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usi ham rivojlanadi. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligi deganda quyidagilar nazarda tutiladi: texnologik ta'lim amaliyoti bo'yicha metodikani egallash; yoshlarda mehnat va texnologik bilim hamda ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish va yo'naltirish tajribasiga ega bo'lish; mehnat va texnologik ta'lim bo'yicha amaliy vositalarni bilish. Bunday yondashuv texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining professional o'qituvchi sifatidagi kasbiy tayyorgarligini, nazariy bilimga egaligini hamda amaliy faoliyat asoslaridan xabardorligini belgilaydi. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda ixtisoslik fanlarining barchasi kasb-hunar egallashga qaratilganligini inobatga olish lozim. Kasb-hunar esa naqshbandiya tariqatining eng asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Kasbi yoki hunari bo'lmagan inson tariqatga qabul qilinmagan.

XULOSA

Naqshbandiya ta'limotidagi qadriyatlar asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish o'qituvchining nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki uning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali bo'lajak o'qituvchilar o'z kasbiga halol va fidokorona yondashuvchi, jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yuvchi, yuksak ma'naviyatli va komil shaxs sifatida yetishib chiqadi. Shunday qilib, qadriyatlar asosida shakllangan kasbiy kompetentlik zamonaviy ta'lim talablariga javob beruvchi, ijtimoiy mas'uliyatni chuqur his qiluvchi pedagog kadrlarni tayyorlash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). – T., 2004. – B. 4.
2. Naqshbandiya tariqati vositasida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish: monografiya. – T.: "MALIK PRINT CO", 2022. UDK: 373:159.9. KBK: 74.00.
3. Сластенин В. А. Профессиональная готовность учителя к воспитательной работе: содержание, структура, функционирование // Профессиональная подготовка учителя в системе высшего образования. – М.: МГПИ им. В. И. Ленина, 1982. – 220 с.
4. Xalmuxamedova M. A. Naqshbandiya tariqatida kasb-hunar egallashga da'vat // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, Issue 12. – ISSN: 2181-1385.
5. Komilov N. Tasavvuf va Najmiddin Komilov bilan suhbatlar [Video]. Muallif-adib. Tasavvuf tarixi va adabiyoti. 25.04.2018.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.